



# **DEVELOPMENT OF SELF-ASSESSMENT IN PEDAGOGICAL ACTIVITY THROUGH REFLECTION**

Avulova Fotima

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent

Axborot Texnologiyalari universiteti

Salixova Muxayyo

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent

Axborot Texnologiyalari universiteti

## **Abstract**

This article deals with the development of self-assessment in pedagogical activity through reflection. The study reveals the importance of the reflexive approach in the educational process and analyzes the possibilities of improving the professional activities of teachers based on the theories of scientists such as John Dewey, Donald Schont, Graham Gibbs. The article substantiates that reflection is an important factor in the formation of critical thinking and professional development in teachers.

**Keywords:** Reflexion, pedagogical skills, professional skills, personal reflexion, professional reflexion, social reflexion, professional development.

## **Introduction**

Bugungi kunda ta'lim jarayoni o'qituvchidan faqat bilim beruvchi emas, balki o'z faoliyatini tahlil qila oladigan, natijalarini baholay oladigan va doimiy ravishda kasbiy rivojlanishga intiladigan shaxs bo'lishini talab etadi. Pedagogning o'z kasbiy mahoratini oshirish, dars samaradorligini ta'minlash va talabalarga individual yondashuvni shakllantirishda refleksiya o'rni katta rol o'ynaydi. Refleksiya pedagogning o'z faoliyatini ongli ravishda tahlil qila olishi, kuchli va zaif tomonlarini bilishi va kelgusi ishlarida ish faoliyatini takomillashtirish uchun asos yaratish imkoniyatini beradi. Ushbu maqolada pedagogik refleksiya orqali o'z-o'zini baholashni rivojlantirishning nazariy

asoslari, uning amaliy ahamiyati hamda bugungi kundagi ta'lim tizimlarida qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Ushbu maqola pedagogik refleksiyaning mazmunini, ahamiyatini va o'qituvchining o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda Amerikalik olim Barry J.Zimmerman, Amerikalik faylasuf va pedagog Donald Schon va boshqa olimlar pedagogning kasbiy mahoratini rivojlantirishda o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni anglash, kuchli va zaif tomonlarini baholash orqali o'z-o'zini takomillashtirishning samarali usullarini yoritiladi. Shuningdek, o'qituvchilarda reflektiv madaniyatni rivojlantirish, dars jarayonidan so'ng tahlil, vediotahlil va o'zaro feedbacklar ahamiyati ko'rsatib beriladi.

Amerikalik olim Barry J.Zimmerman o'z-o'zini boshqarish modeli ustida ish olib borgan. Zimmerman nazariyasiga ko'ra, o'z-o'zini boshqarish modeli bu o'quvchining o'z ta'lim faoliyatini ongli ravishda rejalashtirishi, nazorat qilishi, baholashi va rivojlantirib borishidir.<sup>1</sup> Zimmermanning tadqiqotida uch bosqichli siklik modeli mavjud unda refleksiya shunchaki darsdan keyingi jarayon emas, balki aylanma jarayon deb tushunadi. Maqolada ushbu uch bosqich yoritilmoqda. Forethought (Oldindan rejalashtirish): Pedagog darsga kirmasdan oldin maqsad qo'yishi va o'ziga ishonchi(self-efficacy) bo'lishi kerak.

Performance (Amalga oshirish/Nazorat): Dars jarayonida o'zini kuzatish. O'qituvchi dars o'tayotgan paytda o'quvchilarning reaksiyasini tahlik qilishi. Self-Reflection (o'z-o'zini tahlil qilish): Darsdan keyin natijani baholash. Bu bosqichda Zimmerman "Self-judgement" (o'ziga baho berish) va "Self-reaktion" (o'z munosabati) tushunchalarini kiritadi.

B.Zimmerman o'z-o'zini boshqarish modelida (SRL) refleksiyaning doimiy aylanma jarayon sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, pedagog nafaqat darsdan keyin, balki darsga tayyorgarlik ko'rayotganida ham oldindan ko'ra bilish orqali o'z faoliyatini loyihalashtirishi kerak. Bu esa o'qituvchining professional mas'uliyatini oshiradi va tasodifiy xatolarni oldini oladi.

Amerikalik faylasuf va pedagog Donald Schon-refleksiya tushunchasini amaliyotga tatbiq etish hissasini qo'shgan. Donald Schonning reflektiv amaliyotiga oid ishlari, o'qituvchilarning o'z faoliyatlarini tahlil qilish va uni takomillashtirish orqali qanday qilib talabalar tayyorligini yaxshilashi

---

<sup>1</sup> Joanna Briggs Institute. JBI Manual for Evidence Synthesis. Adelaide: JBI; 2020

mumkinligini ko'rsatadi. U professional bilimni faqat nazariyadan emas, balki real amaliyot va tajriba orqali shakllanadigan "bilishi-amal" deb ko'rgan, bu yondashuv ko'plab mutaxassislar uchun foydali-chunki har bir holat noyob bo'lishi mumkin.<sup>2</sup>

Buyuk Britaniyalik olim Graham Gib refleksiya nazariyasiga katta hissa qo'shgan. U olti bosqichli refleksiya modelini kiritgan. Ko'plab tadqiqotchilar Gibbs tsiklini e-portfolio, Padlet, Moodle Journals, Google Classroom Reflection Task kabi vositalarda qo'llashni ommlashtirdi.<sup>3</sup>

Refleksiya-bu shaxsning o'z tajribasi, his-tuyg'ulari va xatti-harakatlarini o'ylash va tahlil qilish jarayonidir. U o'z-o'zini anglash va shaxsiy rivojlanish uchun muhim vositadir. Refleksiya insonga o'z xatolarini tushinish va kelajakda yaxshiroq qarorlarni qabul qilish imkonini beradi. Masalan, kun oxirida o'z harakatlariningizni o'ylash refleksiyaning oddiy shaklidir. Ushbu maqola refleksiya haqida to'liq tasavvur berishga qaratilgan<sup>4</sup>.

### **Refleksiyaning turlari**

Refleksiya bir nechta turga bo'linadi: shaxsiy, professional va ijtimoiy refleksiya. Shaxsiy refleksiya inson o'z his-tuyg'ularini va shaxsiy maqsadlarini tahlil qilishga qaratilgan. Masalan kun davomida his qilgan tuyg'ularini o'ylash va tahlil qilish shaxsiy refleksiya. Professional refleksiya ish faoliyatiga qaratilgan. U ishda yo'l qo'yilgan xatolar yoki muvaffaqiyatlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Masalan, loyiha natijalarini tahlil qilish professional refleksiya kiradi. Ijtimoiy refleksiya boshqalar bilan munosabatni tahlil qilishdir. U do'stlar, oila yoki hamkasblar bilan o'zaro muloqotni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Bu ijtimoiy ko'nikmani rivojlantiradi. Har bir tur o'ziga xos maqsadlarda xizmat qiladi. Shaxsiy refleksiya ichki dunyoni tushinishga yordam bersa, professional refleksiya karyera rivojlanishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy refleksiya esa munosabatlarni mustahkamlaydi. Ushbu maqolada refleksiya orqali pedagogik faoliyatda o'z-o'zini baholashni rivojlantirishni ko'rib chiqamiz.

Biz refleksiyaning rivojlantirish uchun ko'p foydali metodlar qo'llasak bo'ladi. Masalan, o'z-o'zini baholash varaqalari, portfoliolar, reflektiv savollar

<sup>2</sup> Kolb, D. A. (1984). *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.

<sup>3</sup> <https://share.google/aimode/4PyDPularntELcgh9>

<sup>4</sup> <https://uz.wikipedia.org/>

texnikalaridan foydalangan holda o'z-o'zimizni rivojlantirsak bo'ladi. Refleksiya va o'z-o'zini baholash o'zaro bog'liq tushuncha. Refleksiya o'z-o'zini baholashning asosidir. Refleksiya orqali kuchli va zaif tomonlarni osonlik bilan aniqlash mumkin. O'z-o'zini baholash orqali kasbiy samaradorlikni oshirish, bilim darajamizni oshirishimiz mumkin. Pedagogik faoliyatda ham refleksiyaning amaliy ahamiyati o'rni katta. Amaliy ahamiyati shuki, ushbu amaliy refleksiya dars sifatini va samaradorligini oshiradi, pedagogik xatolarni aniqlashga imkoniyat yaratadi va bartaraf etadi, o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida reflektiv yondashuvga ega bo'lgan pedagog kasbiy faoliyati bilan ajralib turadi. Reflektiv pedagog o'z faoliyatini doimiy tahlil qilish, baholash, va takomillashtirishga harakat qiladi. Bunda avvalo tanqidiy fikrlash kompetensiyasi rivojlanadi va pedagog o'z darslari, metodlari va qarorlarini tanqidiy tahlil qilib, mavjud bo'lgan muammolarni aniqlaydi va uni bartaraf etish yo'llarini izlaydi. Undan keyin metakognitiv kompetensiya reflektiv pedagog faoliyatiga ta'siri bor. Bu kompetensiya pedagogga o'z bilimlari, ko'nikmalari va fikrlash jarayonlarini anglash, nazorat qilish va boshqarish imkonini beradi. O'z-o'zini baholash va mas'uliyat kompetensiyasi refleksiya orqali rivojlanadi. Pedagog o'z faoliyati natijalariga mas'uliyat bilan yondashib, kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi hamda kasbiy kamchiliklarini bartaraf etishga intiladi. Va so'ngida, uzluksiz davom etgan kasbiy rivojlanish kompetensiyasi reflektiv pedagogning muhim belgilaridan biridir. Refleksiya pedagogni yangiliklarga ochiq bo'lishga, innovatsion metodlar va texnologiyalarni o'rganishga hamda amaliyotga joriy etishga undaydi.


Quyidagi jadvalda bosqichlar va undagi savol turi va kutilayotgan natijalar kiritildi. Bunda talaba har bir bosqichda nimalarga yuz kelishi, muammoni qanday hal qilishi va oxirida nima natijalarga erishishi keltirib o'tildi.

Bosqich	Savol turi (O'qituvchi o'ziga berishi kerak)	Kutilayotgan natija
Tavsif	Darsda aynan nima sodir bo'ldi?	Voqeani xolis bayon etish
Hissiyot	O'sha paytda nimalarni his qildim?	Emotsional holatni anglash
Baholash	Tajribaning ijobiy va salbiy tomonlari nima edi?	Yutuq va kamchilikni ajratish
Harakat rejasi	Agar vaziyat takrorlansa, nima qilgan bo'lardim?	Professional o'sish strategiyasi

Ushbu maqola davomida o'quvchilar bilan so'rovnomalar o'tkazildi va refleksiyaning hayotda o'rni va qanday metodlar orqali o'z ustmizda ishlashimiz kerakli natijalarni berishi tahlil qilinadi. Refleksiyaning real hayotda qanday darajada foydalanishimiz, uning samaradorligi va hayotdagi o'rni yoritildi. So'rovnoma asosida o'quvchilarning refleksiya nisbatan fikrlarini bilib oldik va kerakli ijobiy natijalar ko'rsatildi. Ushbu so'rovnomalar va natijalari quyida keltirib o'tildi.


Darsingiz kutilganidek o'tmagan taqdirda, muvaffaqiyatsizlikning asosiy sababini nima bilan bog'laysiz?

18 ОТВЕТОВ




O'z darslaringizning samaradorligini tahlil qilish uchun quyidagi usullardan qaysi birini ko'p qo'llaysiz?

18 ОТВЕТОВ




Agar o'quvchilar mavzuni tushunmayotganini sezsangiz, dars rejangizni darsning o'zida o'zgartira olasizmi?

18 ОТВЕТОВ



Kasbiy mahoratingizni oshirishda refleksiyaning o'rni qanchalik muhim deb o'ylaysiz? (0-5) shkalada

18 ОТВЕТОВ



Pedagogik refleksiya shunchaki o'tilgan darsni eslash emas, balki ta'lim sifatini kafolatlovchi strategik vositadir. Mazkur maqolada tahlil qilingan Barry Zimmerman, Donald Shon va Graham Gibbsning nazariy modellari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy o'qituvchi faqat axborot uzatuvchi subyekt bo'lib qolmasdan, balki o'z faoliyatining tadqiqotchisiga aylanishi lozim. Ta'lim tizimida reflektiv madaniyatni shakllantirish – o'qituvchining professional kompetentligini yangi bosqichga olib chiqadi. Refleksiya yuritadigan pedagog o'zgarishlarga ochiq bo'ladi, innovatsiyalarni oson qabul qiladi va eng muhimi, talabalarga individual yondashuv orqali ta'lim samaradorligini kafolatlaydi. Kelajakda pedagog kadrlar tayyorlash dasturlariga refleksiya metodikasini alohida modul sifatida kiritish maqsadga muvofiqdir.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Joanna Briggs Institute. JBI Manual for Evidence Synthesis. Adelaide: JBI; 2020
2. Zimmerman, B. J. (2000). Attaining Self-Regulation: A Social Cognitive Perspective. Handbook of Self-Regulation. Academic Press.
3. Kolb, D. A. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
4. <https://share.google/aimode/4PyDPuIarntELcgh9>
5. <https://uz.wikipedia.org/>